

# **TTPU JAMOASI “YANGI NAFAS” OMMAVIY YUGURISH MARAFONIDA ISHTIROK ETDI.**

Bugun, Mustaqilligimizning 32 yilligi munosabati bilan yurtimizning 16 ta hududida “Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun!”, “Bir mamlakatda, bir vaqtda, bir masofada, bir maqsadda – birga yuguramiz!” shiorlari ostida “Yangi nafas” yugurish marafoni bo‘lib o‘tdi.

Toshkent shahrining “Humo Arena” hududida o‘tkazilgan mazkur ommaviy sport tadbirida TTPU rahbariyati boshchiligida talabalar, professor-o‘qituvchilar hamda tyutorlar faol qatnashdi. Finishga etakchilar qatorida yetib kelgan ishtirokchilarga esdalik sovg‘alari topshirildi.

Mazkur o‘ziga xos aksiyada 86 ta oliy ta‘lim muassasasining 31 mingdan ortiq talaba-yoshlar qatnashdi.







